



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## №12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

# 2025



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor

**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
<b>Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li</b>	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
<b>Maxmudova Aziza Pirmamatovna</b>	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
<b>Turayeva Gulizahro</b>	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
<b>Бахриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
<b>G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna</b>	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
<b>Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich</b>	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
<b>Mustafoyev Akbar Mustafo o'g'li</b>	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
<b>Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi</b>	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
<b>Abdusalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda</b>	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
<b>Sodikov Zokir Rustamovich</b>	
YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
<b>Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi</b>	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
<b>G'aniyev Baydulla Toshmurodovich</b>	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
<b>Даулетиярова Шахло</b>	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
<b>Кадилова Хадича Тураевна</b>	
XORIJ MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
<b>D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev</b>	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
<b>Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li</b>	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
<b>Botirova Raximaxon Abdujabbarovna</b>	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
<b>Musayeva Shoirazimovna</b>	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
<i>Axmedov Oybek Turgunpulatovich</i>	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
<i>Madraximov Ilxom Kamilovich</i>	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
<i>Zaripov Xusan Baxodirovich</i>	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
<i>Xamrayev Quvvat Iskandarovich</i>	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
<i>Jalilov Jamshid G'anjionovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li</i>	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
<i>Xayitboev Abror Quvondiqovich</i>	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
<i>Гулмаматова Дурдона Шерали кизи</i>	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
<i>Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
<i>Qulliyev Anvar Zayniddinovich</i>	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
<i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
<i>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</i>	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
<i>Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova</i>	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
<i>Остонов Егамберди</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
<i>Xakimova Xulkar Xamidovna</i>	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
<i>Tleuov Niyetulla Raxmanovich</i>	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
<i>Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna</i>	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	234
<i>Sadikov Shoxrux Shuxratovich</i>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
<i>Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna</i>	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
<i>Djalilova Dilbar Abdikarim qizi</i>	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHIYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ..... 247  
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li



# HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)



**Maqsudova Malohatxon Maqsudovna**

Urganch RANCH Texnologiya Universiteti  
24-01 Iqtisodiyot magistranti  
ORCID: 0009-0007-3012-1873



**Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi  
Urganch hududiy filiali bosh metodisti  
ORCID: 0009-0009-2943-3321

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirishda innovatsion-investitsion boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishning ahamiyati tahlil qilinadi. Hudud iqtisodiyotini innovatsion va investitsion loyihalar orqali jadal rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlari yoritiladi. Shuningdek, mavjud resurslardan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali hududning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha strategik mexanizmlar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy salohiyat, innovatsion-investitsion boshqaruv, strategiya, makroiqtisodiy barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish, yangi texnologiyalar, xorijiy investitsiyalar, raqobatbardoshlik, hududiy rivojlanish.

**Abstract.** This article examines the importance of developing an innovation–investment management strategy to enhance the economic potential of the Khorezm region. It explores the key directions for accelerating regional economic development through innovative and investment projects, as well as ensuring macroeconomic stability. The study also proposes strategic mechanisms for improving the region's competitiveness by effectively utilizing existing resources, introducing new technologies, and attracting foreign investment.

**Key words:** Economic potential, innovation–investment management, strategy, macroeconomic stability, efficient use of resources, new technologies, foreign investment, competitiveness, regional development.

**Аннотация.** В данной статье анализируется значение разработки инновационно-инвестиционной стратегии управления для повышения экономического потенциала Хорезмской области. Рассматриваются направления ускоренного развития региональной экономики за счёт инновационных и инвестиционных проектов, а также обеспечения макроэкономической стабильности. Кроме того, предлагаются стратегические механизмы повышения конкурентоспособности региона посредством эффективного использования ресурсов, внедрения новых технологий и привлечения иностранных инвестиций.

**Ключевые слова:** Экономический потенциал, инновационно-инвестиционное управление, стратегия, макроэкономическая стабильность, эффективное использование ресурсов, новые технологии, иностранные инвестиции, конкурентоспособность, региональное развитие.



## KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyoti hamda uning hududlari oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, raqobatning kuchayishi va resurslardan samarali foydalanish zarurati hududiy rivojlanish strategiyasiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, barqaror hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi iqtisodiy o'zgarishlarni to'g'ri tushunish hamda ularni boshqarish mexanizmlarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Xorazm viloyati misolida olib qaralganda, hududning iqtisodiy salohiyatini oshirishda agrar va sanoat sohalariga innovatsion-investitsion iqtisodiy mexanizmlar orqali yangicha tus berish, ya'ni investitsiyalar orqali hudud muhitini yaxshilash muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta'minlash va daromadlarni oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

Shu sababli Xorazm viloyati iqtisodiyotini innovatsion-investitsion boshqaruv strategiyasi asosida rivojlantirish hududning raqobatbardoshligini kuchaytirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va barqaror o'sishga erishishda muhim omil sifatida qaraladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini innovatsion-investitsion boshqarish strategiyasi va mexanizmlariga turli davrlarda turlicha ta'riflar berilgan. Nazariy va global tadqiqotlarda Michel E. Porterning *The Competitive Advantage of Nations* (1990) asarida klasterlar va raqobat ustunligi nazariyasi ilgari surilgan bo'lib, unda hududiy raqobat va tarmoqlarni (cluster) rivojlantirish g'oyalari mintaqaviy strategiyalar, tarmoq hamda qo'llab-quvvatlovchi sanoatlarni uyg'unlashtirish uchun klassik nazariy asos sifatida ta'riflangan. Xorazm uchun klaster yondashuvi (masalan, agroklastarlar) strategik jihatdan foydali ekanligi haqidagi fikrlar keltirilgan [1].

Shu bilan birga, Philip Cooke tomonidan taqdim etilgan *Regional Innovation Systems* (1992 va keyingi ishlari) konsepsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unda hududdagi firmalar, ilmiy-ta'lim muassasalari va davlat boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar orqali innovatsiyalarni rag'batlantirishga doir nazariya ilgari surilgan [2].

World Bank va ADB tomonidan tayyorlangan *Uzbekistan Agriculture Modernization Project* (2020) loyiha hujjatlarida O'zbekiston qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bo'yicha xalqaro loyihalar, agro-logistika markazlari (shu jumladan Xorazmda rejalashtirilgan va amalga oshirilgan hamkorliklar) investitsiya va infratuzilma yo'nalishlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan [3].

Mahalliy olimlarimiz ham ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, Almardonov M.I.ning Hududlarning iqtisodiy salohiyatini innovatsion-investitsion boshqarish strategiyasi va mexanizmlari mavzusidagi ilmiy ishlari hududiy innovatsion-investitsion boshqaruvning milliy nazariy asoslarini hamda hududlar darajasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan mexanizmlarni taklif etadi. Xorazm kabi hududlarda strategik yo'nalishlarni tahlil qilish uchun nazariy baza shakllantirilgan.

Shuningdek, *Regional Investment Analysis: A Panel Data Evidence from Uzbekistan* – M. Y. Bakhrovna (2024-yil) tomonidan yozilgan maqolada O'zbekistonning hududiy investitsiya potentsiali panel ma'lumotlar asosida baholangan, viloyatlararo investitsion farqlar va ularga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan hamda Xorazm uchun investitsiya yo'nalishlari bo'yicha metodologik ko'rsatmalar berilgan [4].

Ruzmetov B.ning *Regional Features of Investment Activeness in the Republic of Uzbekistan* nomli konferensiya maqolasida ham hududlar bo'yicha investitsiya faolligi dinamikasi va statistik tahlili keltirilgan [5].

Umuman olganda, ushbu qarashlar hududlarning iqtisodiy salohiyatini innovatsion-investitsion boshqarish strategiyasi va mexanizmlariga doir umumiy tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, hozirgi globallashuv jarayonlari iqtisodiyotning turli sohalarini jadal rivojlantirishni talab etmoqda. Zamonaviy iqtisodiy o'sishga an'anaviy ishlab chiqarish hajmini oshirishdan ko'ra ko'proq innovatsion rivojlanish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilish orqali erishish mumkin bo'lib, bu iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim talablardan biri sanaladi.

## TADVIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida statistik tahlil, taqqoslash usullaridan foydalangan holda Xorazm viloyatini iqtisodiy salohiyatini innovatsion-investitsion boshqarish strategiyasi va mexanizmi tahlil qilingan va shuning natijasida xulosalar va tavsiyalar keltirilgan.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyati Respublikamizning iqtisodiy salohiyati qishloq xo'jaligiga moslashgan hududi hisoblanadi. Hududda asosan g'alla, meva-sabzavot yetishtirilib, an'anaviy qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlangan. Bu tarmoqlarni yanada rivojlantirish maqsadida hududga innovatsion-investitsion loyihalarni jalb qilish hudud iqtisodiyotini ko'tarishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Xorazm viloyatining iqtisodiy o'sishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, hudud bir qator iqtisodiy tarmoqlar orqali o'sish nuqtalariga ega bo'lib, bu o'zgarishlarni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar sohasida ko'rish mumkin.

2024-yil moliyaviy yil yakunlariga ko'ra, viloyat sanoat tarmog'i 26 005,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 107,3 foiz o'sishni bildiradi. 2025-yil yakunlari bo'yicha iqtisodiy prognozlarga ko'ra, sanoatning ulushi 30 228,5 mlrd so'mni tashkil etishi kutilmoqda va bu 106,2 foiz o'sishni anglatadi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida ham o'sish kuzatilgan. 2024-yil yakunida ushbu soha hajmi 31 233,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 104,0 foiz o'sish demakdir. 2025-yil yakunida esa 34 797,0 mlrd so'mni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda, iqtisodiy o'sish 103,9 foiz bo'lishi kutilmoqda.

Qurilish tarmog'ida ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. 2024-yil yakunida qurilish ishlari hajmi 10 536,7 mlrd so'mni tashkil etib, 107,2 foiz o'sishni ko'rsatgan. 2025-yilda bu ko'rsatkich 13 686,7 mlrd so'mga yetishi, o'sish sur'ati esa 107,5 foiz bo'lishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasida ham sezilarli o'sish qayd etilgan. 2024-yil yakuniga ko'ra, xizmatlar hajmi 24 763,2 mlrd so'mni tashkil etib, boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori – 117,2 foizlik o'sishni ko'rsatgan. 2025-yil yakunida ushbu sohada 28 888,2 mlrd so'm ko'rsatkichiga erishilishi, iqtisodiy o'sish esa 115,5 foiz bo'lishi kutilmoqda.

### 1-jadval. Xorazm viloyatini 2025-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari

Asosiy tarmoqlar yillar kesimida	2024 yil yakunlari		2025 yil (prognoz)	
	hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati, %	hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati, %
Sanoat	26 005,3	107,3	30 228,5	106,2
Qishloq xo'jaligi	31 233,5	104,0	34 797,0	103,9
Qurilish ishlari	10 536,7	107,2	13 686,7	107,5
Xizmat ko'rsatish	24 763,2	117,2	28 888,2	115,5

Ushbu iqtisodiy o'sishga erishish uchun o'z navbatida viloyat tarmoq korxonalarini va viloyat hokimligi bir qator investitsion loyihalarni amalga oshiriladi. Jumladan viloyatda loyiha tashabbuskorlari tomonidan jami 98 ta loyiha maqsad qilingan bo'lib, ushbu loyihalarni umumiy qiymati 3 533 413 mln so'mni tashkil qiladi shu jumladan o'z mablag'lari hisobidan 1 216 980 mln so'm, bank krediti 818 402 mln so'mni, xorijiy investitsiyalar 105 700 ming dollr, xorijiy kredit liniyasi 101 200 ming dollrni tashkil qiladi. Bu esa viloyatdagi ishsizlik darajasiga ham bevosita ta'sir etmasdan qolmaydi viloyatdagi bo'sh ish o'rinlari soni 7 414 tani tashkil qiladi.

### 2-jadval. 2025-2026-yillarda Xorazm viloyatida tarmoq korxonalarini va viloyat hokimligi mas'ulligida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari

Jami 98 ta loyiha	Loyihaning umumiy qiymati, (mln so'm)	shu jumladan:				Ish o'rni soni
		o'z mablag'i (mln so'm)	bank krediti (mln so'm)	xorijiy kredit liniyasi (ming doll.)	xorijiy investitsiya (ming doll.)	
	3 533 413	1 216 980	818 402	101 200	105 700	7 414

Shu bilan birgalikda, Xorazm viloyatida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida amalga oshiriladigan loyihalar mavjud ushbu loyihalar asosan chet-el investorlari bilan birgalikda amaga oshiriladigan loyihalar bo'lib jami loyihalarning qiymati 253 mln AQSH dollarini tashkil qiladi. Ushbu investitsiyalar asosan sog'liqni saqlash soxasi, maktabgacha va maktab ta'limi sohasi, madaniyat sohasi, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish soxasi, qishloq xo'jaligi sohasi, energetika sohasi va transport sohasiga yo'naltirilgan.



Viloyatni innovatsion loyihalarni ham qo'llab quvvatlash maqsadida chet-el kapitalini jalb etish ishlari olib borilmoqda. Xususan, viloyatda "O'zbekiston – Xitoy texnoparki" maxsus sanoat zonasiga yer va uchastkalar ajratilgan. Bunday loyiha Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanida bo'lib bunda jami 175 ga yer maydonida maxsus sanoat zonasini innovatsion loyihalar asossida tashkil qilish maqsad qilib olingan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyati so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Hududda sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va qurilish tarmoqlarida kuzatilayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlar viloyat miqyosida iqtisodiy faollikning ortib borayotganidan dalolat beradi. Xususan, 2024-yilda sanoat hajmining 107,3 %, qishloq xo'jaligining 104 %, xizmatlar sohasi 117,2 % ga o'sishi hudud iqtisodiyotida diversifikatsiya va tarmoq o'sish nuqtalarining mavjudligini ko'rsatadi.

Biroq iqtisodiy o'sishga qaramay, qator tizimli muammolar hali ham mavjud, xususan:

- qishloq xo'jaligi to'liq modernizatsiya qilinmagan;
- irrigatsiya tizimlari eskirgan, resurslardan foydalanish samarasiz;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash yetarli emas;
- sanoatda diversifikatsiya yetarli darajada shakllanmagan;
- kimyo, elektronika, yengil sanoat kabi yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlar rivoji sust;
- innovatsion ekotizim yetarli shakllanmagan, texnoparklar faoliyati kengaymagan;
- investitsion loyihalarning ko'lemi ortmoqda, biroq tashqi va xususiy investitsiyalar ulushi hali past;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalarining iqtisodiyotdagi ta'siri sekin shakllanmoqda.

Xorazm viloyatida 2025-2026 yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan 98 ta investitsiya loyihasi, umumiy qiymati 3,5 trln so'm, viloyat iqtisodiyotini tubdan modernizatsiya qilish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 7 414 yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik asosida 253 mln dollarlik loyihalar, shuningdek "O'zbekiston – Xitoy texnoparki"ning tashkil etilishi hudud iqtisodiyotini innovatsion transformatsiya sari olib chiqadi.

Shu asosda, Xorazm viloyati iqtisodiyotini innovatsion-investitsion boshqarish strategiyasi hududning raqobatbardoshligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va tarmoq modernizatsiyasini chuqurlashtirishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Shu bilan birgalikda, bir qator iqtisodiy tarmoqlarni yanada rivojlantirish ham zarur. Jumladan, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, sanoatni diversifikatsiya qilish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash, hududning iqtisodiy boshqaruv tizimini takomillashtirish, aholi bandligini oshirish va xizmatlar sektorini rivojlantirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [https://economie.ens.psl.eu/IMG/pdf/porter\\_1990\\_the\\_competitive\\_advantage\\_of\\_nations.pdf](https://economie.ens.psl.eu/IMG/pdf/porter_1990_the_competitive_advantage_of_nations.pdf)
2. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0016718592900489utm>
3. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/434601585015259716/pdf/Uzbekistan-Agriculture-Modernization-Project.pdf>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/regional-investment-analysis-a-panel-data-evidence-from-uzbekistan>
5. <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/27477>
6. Iqtisodiy o'sish: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/ A.A. Abduvoxidov, Z.M.Zikriyayev, M.A.Mamatov, G'.I.Berdiyev, E.N. Bo'riboev, D.B.Eshpulatov Guliston, Ziyo nashr - matbaa, 2022.- 12 b



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>